



MURABBIY
ILMIY-MA'RIFIY JURNAL

“**MURABBIY**”

**ILMIY-MA'RIFIY
JURNAL**

Issue:2 2021

<https://science.jspi.uz/>



Chief Editor:

S.Nazarkasimov, Doctor of Philosophy (Ph.D) in Sociology, Vice-Rector of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

A.Turaev, senior teacher of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Sh.S.Sharipov - Professor
B.M.Ochilova - Professor
D.Khodjimetova - assistant professor
A.Pardaev - assistant professor
M.N.Khoshimkhonov - assistant professor
A.I.Saidkasimov - assistant professor -
F.K.Akhmedov - assistant professor
B.E.Toshboev - assistant professor
I.N.Akhmedov - PhD
D.Salimova - PhD
N.N.Alimov - assistant professor
M.Saidov - Ph.D.
X.Maxammadiev - teacher

Editorial Representative:

Abrar Turaev
Jizzakh State Pedagogical Institute,
Uzbekistan
Phone: +998933091877
e-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

**ONLINE ELECTRONIC
JOURNAL**

“Murabbiy” ilmiy-ma’rifiy jurnali
“Mentor” scientific-educational
journal

Научно-просветительский
журнал “Наставник”

Indexed By:



Published By:

<https://science.jspi.uz/>

Jizzakh State Pedagogical
Institute, Uzbekistan



MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS / АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES/ СТРАНИЦЫ
1	Н.А.Шермухамедова	Даврнинг руҳи ва таълим тизими ислохотларининг мутаносиблиги	4-10
2	С.С.Агзамходжаева	Аёл маънавияти – ҳаёт зийнати	11-16
3	О.М.Ғайбуллаев	Ёшларда диний бағрикенгликни шакллантиришнинг фалсафий моҳияти	17-20
4	Г.М.Тўраева	Юксак маънавият маъсулияти	21-28
5	Ф.Б.Файзиева	Ёшлар кибер ижтимоийлашуви амалий социологик тадқиқот объекти сифатида	29-32
6	Ф.Маматқулов	Шахс камолотида маънавиятнинг ўрни	33-38
7	А.А.Қамбаров	Ёшларни маънавий-ахлоқий таҳдидлардан ҳимоя қилишда диний ислохотлар масаласи	39-42
8	С.Э.Ибрагимов	Баркамол авлодни шакллантиришда ғўзаллик тушунчасининг ахамияти	43-47
9	И.М.Арзиматова	Глобаллашувнинг ёшлар маънавий тарбиясига салбий таъсири	48-51
10	Г.Х.То`раева	Globalashuv sharoitida yoshlarda axborot istemoli madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari	52-55
11	У.Б.Муҳаммадиев	Маънавий-ахлоқий таҳдидларга қарши курашиш ўзликни англашдадир	56-60
12	Н.Алиматова	Глобаллашув шароитида ёшлар онгида миллий ғояни шакллантиришда интеллектуал кадрларнинг роли	61-65
13	S.A. Pilyak	Analysis of the concept of identity in the context of cultural heritage interpretation	66-71
14	Н.Тангиров	Ижод жараёнининг фалсафий таҳлили	72-75
15	М.Мамажонова	Глобаллашув ва маънавий таҳдидларнинг моҳият-мазмуни	76-78
16	Б. Б. Жалолов	Зардуштийлик таълимоти манбалари таҳлилиянализ источников учения зороатризма	79-82
17	Ф.Абдусаматов	Ёшлар тарбиясида ислом омили	83-86
18	А.А.Абдурахмонов	Давлат ва жамият бошқарувида ёшлар муаммоларини ҳал қилишнинг устувор йўналишлари	87-91
19	M.Nabiyev	Globalashuv sharoitida ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy	92-96

		tarbiyaning ahamiyati	
20	М.Маматмусаева	Глобаллашув шароитида мафкуравий тарбиянинг ўрни: муаъммо ва ечимлар	97-101
21	Н. Davlatova	Jizzax vohasi tojiklari: an’anaviy turmush tarzi va urf-odatlari	102-108
22	З. Миркомилова	Глобаллашув: манфаатлар ва зиддиятлар	109-114
23	С. Музаффаров	Миллий ахборот хавфсизлигини таъминлаш маънавий ҳаётнинг долзарб вазифаси	115-118
24	С. Тоштемирова	Глобаллашув шароитида маънавиятни шакллантиришда диний бағрикенгликнинг аҳамияти	119-121
25	С. Каримов	Шахснинг ҳаётий мақсадлари ва уларнинг ижтимоий аҳамияти	122-124
26	А.Э. Зиётова, Э.А. Бозоров	Глобаллашув шароитида маънавий-ахлоқий таҳдидларга қарши курашда таълим-тарбия муассасаларининг вазифалари	125-129
27	А.Ш. Эшмуҳаматов, Ж. Хушбақов	Амир Темур салтанатининг вужудга келиши	130-133
28	А. Пармонов	Ёшлар ватанпарварлиги - хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш кафолати	134-140
29	П. Қулматов	Шах маънавиятини шакллантиришда ота-она масъулияти	141-144
30	Ш.Ж. Хашимов, С.Х. Хашимова	Маънавий глобаллашув, ахборотлашган жамият ва ёшлар тарбияси	145-148
31	А. Холбоев	Ёш авлодни юксак маънавиятли шахс қилиб тарбиялашнинг назарий – педагогик асослари	149-154

JIZZAX VOHASI TOJKLARI: AN’ANAVIY TURMUSH TARZI VA URF-ODATLARI


Davlatova Hakima Babaydavlatovna
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax vohasi tojklarining an’anaviy turmush tarzi va urf-odatlarini yoritgan. Jizzax viloyatidagi tojik qishloqlarining tabiati va tarixi, flora va faunasi, yodgorliklari va turizm sohasi yoritilgan.

Kalit so’zlar: Jizzax vohasi tojklarining an’anaviy turmush tarzi, urf-odatlarini, tarixi, yodgorliklari va turizmi.

“Jizzax viloyati O’zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo’lib, uning katta qismi cho’l va dashtliklardan iborat. Viloyatning reliefi o’ziga xos bo’lib, unda tog’, tog’ oldi, dasht va tekislik (cho’l) zonalarini tutashib ketgan. Hududda istiqomat qilgan dastlabki urug’ jamoalar chorvador hamda o’troq dehqonlar uchun qulay tabiiy shart-sharoit va unumdor yerlar, ayniqsa, oqar suv manbalari mavjudligi vohada inson faoliyati hamda uning ma’naviy dunyosi bilan bog’liq ijtimoiy jarayonlarning o’zaro rivojlanishiga asosiy sabab bo’lib, bu qadimgi davrlardan odamlar dunyoqarashi va e’tiqodi bilan bog’liq muqaddas ziyoratgohlarning shakllanishiga ham o’ziga xos zamin hozirlagan”-deb yozgandi Aqchayev F.

Jizzax vohasida ko’plab qishloqlar mavud. Bu hududda Asraf, Porasht, Uxum, Mojarm, Hoyat va Andigin kabi qishloqlar bor. Bu kabi uzoq tarixga ega va hali chuqur o’rganilmagan hazina. Forish tumani tojklarining an’anaviy turmush tarzi, urf-odat va marosimlari o’ziga xos bo’lib, bir-biridan tubdan farq qilmasada, o’rganiladigan va tadqiq etiladigan jihatlari ko’p. Bu zamindan ko’plab olimlar va tadqiqotchilar yetishib chiqqan va aynan ular qishloqlari haqida ma’lumotlar yozib qoldirishgan.



“Forish tojiklari” yashaydigan hududning karta-sxemasi

Nurota tog’lari O’zbekistonning markaziy qismida joylashgan va ma’muriy jihatdan Samarqand, Navoiy hamda Jizzax viloyatlari tarkibiga kiradi. Nurota tog’lari yunon tarixiy manbalarida So’g’d tog’larining bir qismi deb ta’riflangan bo’lsa, arab geografik adabiyotlarda Qof tog’larining tarkibiy qismi sifatida qayd qilingan. Ilk o’rta asr yozma manbalarida Samarqandning shimoliy chegarasida joylashgan tog’lar “Ko’hi xud din” - “o’zi paydo bo’lgan din tog’i” nomi bilan tilga olingan. Mazkur tog’larda istiqomat qilgan mahalliy xalq islomni o’z xohishlari bilan qabul qilganlari uni shu nom bilan atalishiga sabab bo’lgan deyishadi. Shuning uchun, mahalliy xalq mo’g’illar istilosi davrida tog’larini muqaddas bilib, uni g’ayridinlardan qattiq himoya qilganlar. Tabiiy-geografik jihatdan, Nurota tog’lari janubi-sharqdan, shimoli-g’arbga qarab salkam 400 km masofaga cho’zilgan bo’lib, o’rtacha kengligi 50-70 km tashkil qiladi. Tog’ning shimoliy ctigidan taxminan 5-6 km masofada Qizilqum cho’li va Aydar-Amasoy ko’llar tizimidan shimolroqda Qozog’iston hududi boshlanadi. Tog’laming janubi-g’arbiy ctagi Zarafshon daryosining quyi oqimigacha boradi. O’rganilayotgan hududda O’rta Osiyoga xos bo’lgan barcha tabiiy - iqlim sharoitlarini uchratish mumkin. Hudud tabiiy-geografik jihatdan - cho’l, tog’oldi tekisliklari, adir va uncha baland bo’lmagan tog’lardan iborat. Nurota tog’larining shimoliy qismida yashaydigan aholi etnik jihatdan ancha murakkab bo’lib, soha mutaxassislari tomonidan nisbatan kam o’rganilgan. Shunga qaramasdan hududning ctogeografik xususiyatlari ayrim mutaxassislami o’ziga jalb qilgan. Masalan, A.N.Xoroshxin, M.S.Andreyev, B.X.Karmishcva, A.Muxlorov, M.Numa/.arov kabi tarixchi va geografolimler turli

ekspeditsiyalar tarkibida bu joylarda bo’lib, tubjoy aholining turli qatlamlarini qisman o’rganishgan. Muhimi, ular tomonidan mahalliy xalqlarga oid to’plagan etnogeografik ma’lumotlari to’la bo’lmasa ham, hozirgacha o’z ilmiy ahamiyatini yo’qotmagan. Mutaxassislarning yozishicha, Nurota tog’lari ko’p asrlar davomida cho’l ko’chmanchi xalqlarning Samarkand va Buxoro vohalariga harakat qilishida tabiiy to’siq vazifasini bajargan. Bu holat tog’ning shimoliy etagida yashovchi xalqlarning etnik tarkibiga ta’sir ko’rsatganligi olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Qadimdan bu hududda faol migrasion jarayonlar sodir bo’lib turgan va ular mahalliy aholining etnik tarkibiga sezilarli ta’sir ko’rsatib kelgan. Hozirda hudud aholisining asosiy qismini o’zbeklar tashkil etadigan Nurota tog’larining shimoliy qismidan o’tgan Buyuk ipak yo’lining tarmoqlaridan biri bu-Toshkent, Jizzax, Nurota, karmana va undan keying Buxoro shaharlarini birlashtirgan yo’lda va ikki ming yildan ziyod tarixga ega tojik qishloqlari shu yo’lning o’ng tomonida joylashgan”- deb yozgan edi Hakimov Q.

“Mojarm qishlog’i Nurota to’glari etaklarida yoqut kabi porlaydi. O’zining maftunkor tabiati bilan ajralib turadigan ushbu qishloqda odamlar qadim zamonlardan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug’ullanishadi- deb yozgan edi professor Yu.Nurnazarov”.

Mojarm daryosi-Forish tog’laridagi eng uzun va keng soydir. Uning havzasi 56 km² va uzunligi 36 km. Mojarm aholisi dehqonchilik qatorida bog’dorchilik bilan shug’ullanadi. Ular yurtimizning ko’plab hududlari yong’oq yetkazishadi. Mojarm yerlarida bodom, pista va zira o’sadi.

Mojarm qishlog’i o’zining noyob daraxti-Markaziy Osiyoda juda kam uchraydigan (Sharqiy biota-Iuni perus semiglobosa) savr archasi bilan mashxur. Aytishlaricha bu daraxtni Iskandar Zulqarnayn marhum qo’mondonlarini dafn etganda mana shunday daraxt ekarkan. Mojarm archasini ham Iskandar Zulqarnayn ekan emish. Nima bo’lganda ham bu archa qadimiyligidan dalolat beradi. Archa darxtining uzunligi 20 metr, diametri 24 metr. Daraxtni ko’rish uchun chet elliklar ham tashrif buyurishadi.

Mojarm qishlog’i urf-odatlarini boshqa tojik qishloqlari va forishliklarnikiga yaqin. Mojarm qishlog’ida uy mehmonxonlari tashkil etilgan. Chet ellik sayyohlarga ekoturizm va etnoturizm misolida mahalliy aholining turmush tarzi va milliyligi namoyish etilmoqda.

Mojarm qishlog’ining turizm salohiyati juda yuqori va uni rivolantirish uchun alohida maqsadli rejalar ishlab chiqib, qishloq rivoji uchun amalga oshirish lozim. Nurota qo’riqxonasi Nurota tog’ tizmasining shimoliy etaklarida joylashgan bo’lib, dengiz sathidan 500 metrdan 2169 metrgacha baland va maydoni 17752 gektarni

tashkil etadi. Qo’riqxonada nodir tog’ hayvonlari va noyob o’simlik turlari mavjud. Nurota qo’riqxonasining tog’ yonbag’rlari o’rtasida Hoyat qishlog’i joylashgan.

Hoyat so’zi qadimgi so’g’diycha “bahorgi joy” demakdir. Hoyat shevasida U, Ye, E tovushlari o’rniga IY, I yoki Iy holida talaffuz etiladi. Masalan, mur-muur, cho’pon-chuupon, mego’yam-miyguum, meravam-miyrum, xez-xiy, elak-iylak, e’lon-iylon va hokazo-deb yozgan edi Mahmudi Forishi “Tojikoni Forishi” asarida.

Hoyat tabiati Uxumnikidan farq qiladi, ya’ni Hoyat Uxumdan ancha balandroqda joylashgan bo’lib, yozi salqinroq, qishi sovuqroqdir.

Nurota qo’riqxonasida asosan hayvonlar (bug’i, cho’chqa, jayra, bo’ri, tilki va boshqalar); yovvoyi qushlar (kaklik, kalxat) va shifobaxsh o’simliklar (zira, makkajo’xori , ravoch va boshqalar) qo’riqlanadi.

Hoyat soylari o’nta katta-kichik ariqlardan Xornok, Sebinak, Xodxona, Bedak, Zimichik, Sangin, Andaburovud, Alichak, Nor, Doquli, Tillo va Biydarak kabi boshqa ariqlardan iborat.

Hoyatda bir nechta g’orlar mavjud: boboi G’afur, Xo’jamqul va Bahrimurod kabi. Aytishlaricha, Uxum tomonidagi go’rdan Nurota tomon yer osti yo’li bo’lgan. Ushbu afsonada hayotiy haqiqat yo’q. Hoyatning tabiiy va tarixiy yodgorliklari orasida Qo’rg’on(qal’a) shahri ajralib turadi. Ushbu shahar o’tib bo’lmaydigan joyda joylashgan va hoyatliklarning birinchi lageri. Aholi o’tgan asrlarda (200-250 yil oldin) dushmanlar bosqini paytida bu yerdan boshpana topgan. Qo’rg’on shahrining muzofoti shunchalik ajoyibki, 10-15 ta odamlar bu yerda 500 ta dushman bilan jang qilishlari mumkin.

Hoyat qishlog’i aholisi uch urug’ga mansub: ko’yiki, dohayiti va nodirboboi. Hoyat va Uxum hududlari bir-biriga yaqinligi sababli, bu-urug’lar Uxum odamlariga mansub emas. Aksincha, dohayiti urug’i Ej odamlariga aloqadordir.

Hoyat xalqining udum-an’analari Uxum va barcha forishliklarnikiga urf-odatlariga o’xshashdir.

Hoyat qishlog’ining vayrona tosh uylari, eski masjidlari, Saidon, Novi Daroz, Pichak va Forg’u kabi tosh sur’atlari hamda Hoyat (Hoyati bolo) tepaliklari uning qadimiyligidan dalolat beradi.

Hoyatda zamonaviy turizm rivojlanmoqda. U yerga chet elliklar tashrif buyurishmoqda. Qishloqda uy mehmonxonalarini tashkil etilib, sayyohlar bu yerda ekoturizm va etnoturizmdan bahramand bo’lishmoqda.

Uxum-Forish tog’laridagi eng yirik qishloqlaridan biri. Qishloqning kirishi Mo’la va Sirtikon deb nomlangan.

Uxum xalqi uch avlodga mansub: albaki, sultoni va tabakdi. Har bir avlod yana qismlarga bo’linadi. Masalan albaki soqigi, yorboy mullone’mati, dablati , arbobi,

qozigi; tabaqdi mulloartuqi, mullo niyozi, mullo mo’soi, to’rbagi, bobochagi; sultoni solehboy, aliboy, nekmahmadi, odinaboy.

Qadimgi davrlarda bu avlodlar asosan Yuqori va O’rta Uxumda alohida joylarda yashagan. Mo’la va Sirtikon aholi punktlari ancha keyinroq rivojlangan. Ba’zi ma’lumotlarga ko’ra O’rta va Yuqori qo’rg’onlar eng qadimgi turar joylari hisoblanadi. Bozorjoy, Sultoni Miyona va Tabaqdeh qishloqlari taxminan ikki yuz avval va Hoyati poyon, Mo’la, Sirtikon, Mushi Biryon o’tgan asrning 40-80-yillari oxirida paydo bo’lgan.

Uxum qishlog’ining boshqa qishloqlardan farqi shundaki Uxum reylefi o’zgacha va tog’lari juda baland. Nurota tizmazining eng baland tizmasi Hoyat (dengiz sathidan 2169 m) va Panjangusht (2100 m) . Panjangushtdan toza havoda Samarqandni ko’rish mumkinligi aytiladi-deb yozgan edi Maxmudi Forishi.

Parandoz, Dushoh, Qarovul va Tali surx cho’qqilari ham juda baland. Kajdum, Parrandoz, Soi Hoyat g’orlari va Shah izard, Shah ali va Ruxsha kabi tabiiy yodgorliklari mavjud.

Uxum aholisining urf-odatlarini forishliklarga o’xshaydi. Qadim zamonlardan bu qishloqlar aholisi do’stlik va qarindoshlik munosabatlarida bo’lgan.

Uxum qishlog’ining darasining uzunligi 15 ming km. Qishloq aholisi dehqonchilik, chorvachilik va xalq hunarmandchiligi bilan shug’ullanadi.

Uxum viloyat markazidan 150km va tuman markazidan 50 km uzoqlikda bo’lsada, ekologiy turizmni rivojlantirish uchun alohida e’tibor qaratilgan.

Nurota tog’ yonbag’rlarida Jizzax shahridan 150 km, Forish tumanidan 50 km uzoqlikda joylashgan Porasht qishlog’i judayam g’ozal flora va faunasi, qadimiy tarixi, baland cho’qqilari, turizm maskanlari, boy uruf-odat va an’analari, qadriyatlarini va marosimlari bilan ajralib turadi.

Porasht so’zi arabcha “Farsh” (uch tomoni baland tog’ va o’rtasi tekis bo’lgan joy) degan ma’noni beradi. Sog’diycha “Porasht” (qal’a tubi) qo’rg’on degani. “Porasht” so’zining lug’aviy ma’nosini professor Mahmud Nurnazar “Porasht” so’zi sug’diycha “qal’aning oxiri, tubi” degan ma’noni beradi deb yozgan. Qadimgi Porasht hozirgi joyda emas, balki Yuqori Soyning darasida joylashgan. Qo’rg’onlar qoldiqlari, qadimiy uylar va bog’lar, toshdan yasalgan o’ymakorliklar mavjud va ba’zi ma’lumotlarga ko’ra XVII asrdan buyon u yerda hech kim yashamaydi.

Rivoyatlarga ko’ra hozirgi Porasht o’rnida ko’l qamishzor bo’lgan. Buxoro xoni Abdullaxon II (1534-1598) lashkari bilan dashtdan o’tayotib bu zaminda dam oladi. Qaytayotib bu yerlarni bir qarovulbegiga in’om etadi. Qarovulbegi o’z odamlarini Buxorodan olib kelib bu joylarni obod qiladi. Aytishadiki Porashtliklar uch urug’dan iborat: qishloqning tuv aholisi, qarovulbegi yaqinlari (Buxorodan kelgan

odamlari) va mahmadzamonliklar. Bu albatta ilmiy asoslarga ega emas va Porasht aholisi shevasi Buxoro shevasidan farq qiladi.

Porasht qishlog’i hozirgi kunda zamonaviy turizm sohasida o’ziga xos yo’nalishlarda ishlar olib bormoqda. Tabiiy flora va faunasi, qadriyat va milliyligini turistlarga namoyish eta olayabdi. Porashtda mahalliy aholi o’tovlar va uy-mehmonlarxonalar qurib turistlarni qabul qilishmoqda. Zamonaviy turizm rivojlanayotgan davrda chet elliklarga va yurtimiz aholisiga Porasht haqida ko’proq ma’lumotlar berish va tanishtirish kerak. Bunda qishloqdagi sharoitlarni ham yaxshilash, zamonaviy internet vositalari bilan ta’minlash va texnika vositalari bilan ta’minlash kerak!

Porasht qishlog’ining tarixiy yodgorliklari: Suxchi Abdulloxon, Sultonteppa (XVI asr) va uch masjid (Mullodehqon, Arabboy va Mergonsulolasi) mavjud. Jome masjidi XX asrning boshlarida qurilgan.

Porasht qishlog’idagi asosiy suv manbalari Musoboy, Navro’zboy va Domullo buloqlari hisoblanadi.

Porashtning boshqa qishloqlardan farqi shundaki qishloq daraning chiqish qismida joylashgan va shimol tomonga cho’zilgan. Mahalliy aholi shamol yoki muz shamoli deb ataydigan shamol esadi.

Birinchi yangi tipdagi boshlang’ich maktab 1928-yilda Porashtda, 1936-yilda yeti yillik maktab va 1968-yilda o’n yillik o’rta maktab tashkil etildi. Qishloqdagi 13-sonli o’rta maktab dastlab Rudakiy nomiga, so’ngra Jonibek Quvnoq nomiga qo’yilgan.

Porashtda 1950-yildan buyon kutubxona ishlab kelmoqda. Nurota tog’larini tomosha qilish va Nurorta qo’riqxonasi dunyosini tomosha qilish uchun tobora ko’p sayyohlar borar ekan, Porasht qishlog’ida oilaviy kompaniya “Porasht” mehmonxonasi ochildi.

Zamonaviy turizm rivojlangan davrda Porasht qishlog’ida ham uy-mehmonxonalar tashkil etilib ularda quyidagi dasturlar bor:

- Milliy taomlar tayyorlash va tandirda non yopishni tomosha qilish va yordam berish mumkin;

- Mavsumga qarab to’ylar va ko’pkari o’yinlarini tomosha qilish mumkin;
- Folklor uyushtirib milliy-madaniy urf-odatlar, kuy qo’shiqlardan baxramand qilish;

-Hududdagi chorvachilik bilan tanishmoqchi bo’lsa, chorvachilik bilan shug’ullanadigan fermer xo’jaliklariga olib borish.

Porasht qishlog’ining yuqori qismida va to’rt tomoni to’glar bilan o’ralgan go’zal tabiatiga ega Asraf qishlog’i joylashgan. Aholi dehqonchilik va bog’dorchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug’ullanadi. Asraf qishlog’i tarixi m.a.

asrlarga borib tarqaladi. Ular yunonlar tomonidan Zarafshon vodiysidan shu yerlarga ko’chirilgan so’g’diylardir. Qishloqda Azizmurod va Abdulla Nayman buloqlari mavjud.

Zamonaviy texnologiyalar asrida yashar ekanmiz bu kabi boy tarixga va go’zal tabiatda ega qishloqlarimizda zamonaviy turizmni rivojlantirsak sayyohlar oqimi ko’payadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:

1. Aqchayev F. “ Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari”- Toshkent.:2020-yil
2. Hakimov Q. “Forish tijklari: Hududiy joylashi va ayrim etnogeografik xususiyatlari” SamDU.-Samarqand.:2020-yil
3. Maxmudi Forishi. Tojikoni Forish.-Guliston.:2000 yil
4. Sharipov A. Forish: Odamlar va udumlar.-Samarqand.: “Turon nashr”, 2020 yil
5. Tolipov F.S. Nurota vohasi aholisi oilaviy turmish tarzida jamoa an’analari.- Toshkent.:2006 yil
6. Jizzakh Tourism internet sayti